

Qashqadaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-fevral dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6 720 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6 699 tani tashkil qildi

2026- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 4 381,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 110,7 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 266,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 483,8 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 671,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 115,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi



(ulushi foizda)


II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 373 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 357 tani tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2026- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 468,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 27,7% ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 286,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,9 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 87,6 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd. so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hudud Qarshi shahrida 5,3 marta o'sish kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 566 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 561 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 038,6 mlrd. so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi, 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)



Chiqarish uchun javobgar:

Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi

Manzil: 180100, Qashqaryo viloyati, Mustaqillik
ko'chasi, 2 B-uy **Pochta:** qashstat@umail.uz
Tel.: 75-221-44-28